



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 12-sentyabr

Nº 2052

Ayrim sudyalarni lavozimidan ozod etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq:

Yuldashev Sherzod Yuldashevich – odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonuniylikni buzganligi uchun O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 10-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Surxondaryo viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Muzrabot tuman sudining tergov sudyasi lavozimidan ozod etilsin;

Najimov Jamoliddin To'xtanazarovich – vafot etganligi sababli O'zbekiston Respublikasi "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni 79-moddasi 1-qismining 7-bandiga asosan sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilib, Farg'ona viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Qo'qon shahar sudining sudyasi lavozimidan ozod etilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov